

## YASHIL EKSPORT MODELİ ASOSIDA MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

### ENHANCING REGIONAL COMPETITIVENESS BASED ON A GREEN EXPORT MODEL (CASE STUDY OF KHOREZM REGION)

<sup>1</sup>Matyoqubov Arslonbek  
G'ayrat o'g'li

<sup>1</sup>Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining  
mustaqil tadqiqotchisi. G-mail: [arslonbek1301@gmail.com](mailto:arslonbek1301@gmail.com)

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Ushbu maqolada Xorazm viloyatining yashil eksport salohiyatidan foydalanish orqali mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishning ilmiy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Muallif tomonidan to'rt blokdan iborat Yashil eksport modeli (YEM) ishlab chiqilgan bo'lib, u kirish omillari, funksional mexanizmlar, monitoring va baholash hamda natijalar bloklarini qamrab oladi. Modelning asosiy xususiyati bloklararo dinamik teskari aloqa mexanizmi orqali tizimning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlashdan iborat. Tadqiqot natijalari mintaqada yashil eksport siyosatini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

*Eng.* - This article analyzes the scientific and methodological foundations of increasing regional competitiveness through the use of the green export potential of the Khorezm region. The author has developed a Green Export Model (GEM) consisting of four blocks, which includes input factors, functional mechanisms, monitoring and evaluation, and output blocks. The main feature of the model is to ensure the system's adaptability to market conditions through a dynamic feedback mechanism between blocks. The results of the study serve to form a green export policy in the region and increase competitiveness.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *yashil eksport, mintaqaviy raqobatbardoshlik, yashil eksport modeli (YEM), Xorazm viloyati, yashil iqtisodiyot, qo'shimcha qiymat zanjiri, ekologik sertifikatlash, teskari aloqa mexanizmi (feedback), eksport diversifikatsiyasi.*

❖ *green export, regional competitiveness, green export model (GEM), Khorezm region, green economy, value chain, environmental certification, feedback mechanism, export diversification.*

#### Kirish.

Dunyo iqtisodiyotida yashil eksport va aylanma iqtisodiyot tamoyillarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda ekologik barqarorlik talablarining kuchayishi mamlakatlarni iqtisodiy modelni qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Xalqaro bozorlarda

ekologik standartlar va yashil sertifikatlash tizimlari kengayib, uglerod emissiyalarini cheklashga qaratilgan tartiblar tobora kuchaymoqda [1].

Xorazm viloyatida eksport strategiyasiga ekologik tamoyillarni joriy etish va aylanma iqtisodiyotga mos ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro bozorlarda ekologik toza mahsulotlarga talabning ortishi hamda CBAM kabi karbon tartibga solish mexanizmlarining joriy etilishi eksport salohiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, yashil investitsiyalardan foydalanish darajasining pastligi va ekologik sertifikatlash tizimining murakkabligi hudud eksportyorlari uchun to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tadqiqot Xorazm viloyatining yashil eksport modelini shakllantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqotda yashil eksportni rivojlantirish, karbon izini kamaytirish va eksport faoliyatini diversifikatsiya qilish yo'nalishlari tahlil qilinadi hamda hududning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

#### ***Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.***

Chiara Grazini va Giulio Guarini tadqiqotlarida yashil innovatsiyalar va hamkorlik eksport raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillari sifatida qaraladi. Ularning fikricha, ekologik siyosat darajasi va texnologik murakkablik yuqori bo'lgan mamlakatlarda yashil eksport ulushi sezilarli darajada ortadi [2].

Md Ali Emam va hammualliflar (2023) Ekvador misolida "green export review" siyosatining eksport raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqot natijalari yashil siyosat samaradorligi infratuzilma va bozor omillariga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [3].

Y. Xiong (2026) tadqiqotida yashil sanoat barqarorligi, eksport raqobatbardoshligi, barqaror rivojlanish zanjiri empirik jihatdan asoslab berilgan. Unda yashil eksport mintaqaviy rivojlanishda vositachi (mediator) rolini bajarib, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni yaxshilashi ta'kidlanadi [4].

O'zbekistonda esa yashil mahsulotlar eksportini rivojlantirish iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida baholanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida eksport tarkibini

diversifikatsiya qilish mamlakatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi [5].

#### ***Tadqiqot metodologiyasi.***

Ushbu tadqiqot Xorazm viloyatining yashil eksport modelini tahlil qilish, uning aylanma iqtisodiyot tamoyillariga mosligi va xalqaro bozorga integratsiyalashuvi jarayonini baholashga qaratilgan. Tadqiqot doirasida miqdoriy va sifat tahlil usullaridan foydalanilib, so'rovnomalar, ekspert intervyulari, statistik va iqtisodiy tahlillar hamda xalqaro tajribalar bilan taqqoslash amalga oshirildi.

#### ***Tahlil va natijalar muhokamasi.***

Global savdoda barqaror rivojlanishga e'tibor kuchayib borar ekan, atrof-muhitni muhofaza qilish, emissiyalarni kamaytirish hamda ta'minot zanjiri mas'uliyati bo'yicha talablar bozorga kirishning muhim shartlariga aylanmoqda. Bunday sharoitda "yashil" eksport shunchaki tanlov emas, balki global qiymat zanjirlariga integratsiyalashishga intilayotgan ochiq iqtisodiyotga ega O'zbekiston va uning hududlari uchun yangi rivojlanish paradigmasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»da eksportni diversifikatsiya qilish va yashil iqtisodiyotga o'tish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [6]. Bu kontekstda Xorazm viloyati tabiiy-iqlim sharoiti, qishloq xo'jaligi salohiyati va geografik joylashuvi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishda yashil eksportning roli yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, ayniqsa, milliy va hududiy darajada kompleks model mavjud emas [7]. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida Xorazm viloyati misolida "Yashil eksport modeli (YEM)"ni taklif etadi.


Ilmiy adabiyotlarda «yashil eksport» tushunchasi hali yagona ta'rifga ega emas. Keng ma'noda yashil eksport ekologik standartlarga javob beradigan, ishlab chiqarish

jarayonida resurs samaradorligi ta'minlangan, CO<sub>2</sub> izi minimal bo'lgan hamda tegishli xalqaro sertifikatlar bilan tasdiqlangan mahsulot va xizmatlarni xorijiy bozorlarga yetkazib berishni anglatadi [8].

Mintaqaviy raqobatbardoshlikni Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan dinamik model asosida talqin etish maqsadga muvofiq. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, raqobatbardoshlik bir martalik ustunlik emas, balki tizimli omillar majmuasiga asoslangan va uzluksiz qo'llab-quvvatlanadigan jarayondir. Yashil eksport paradigmasi mazkur jarayonga ekologik o'lchovni kiritadi: sifat va narx ustunliklari bilan bir qatorda ekologik ustunliklar ham raqobat afzalligining muhim manbaiga aylanadi.

Ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: (1) bozorga kirish imkoniyatlari – ekologik sertifikatlash eksportyorlarga yuqori daromadli (premium) bozorlarga kirish imkonini yaratadi; (2) ishlab chiqarish samaradorligi – resurs tejamkor texnologiyalar xarajatlarni kamaytirib, rentabellikni oshiradi; (3) institutsional imij – yashil standartlarga rioya etish mintaqaning xalqaro investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

Xorazm viloyati uchun ishlab chiqilgan Yashil eksport modeli (YEM) taqdim etiladi (1-rasm). Mazkur model o'zaro bog'liq to'rtta blokdan iborat bo'lib, ular o'rtasida ikki yo'nalishli – to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqa (feedback) – mexanizmlari mavjud.



1-rasm. Hudud raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan “Yashil eksport modeli”

<sup>1</sup>Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet veb saytlarining materiallari asosida muallif ishlanmasi.

Modelning umumiy mantiqiy ketma-ketligi quyidagicha: 1-blok kirish resurslarini jamlaydi, 2-blok ularni funksional jarayonlar orqali qayta ishlaydi, 3-blok natijalarni baholaydi va moslashuvni ta'minlaydi, 4-blok esa yakuniy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni aks ettiradi. Muhim jihati shundaki, 3-blokdan 1-blokka yo'naltirilgan teskari aloqa (feedback) mexanizmi modelni bir martalik emas, balki doimiy o'rganuvchi tizimga aylantiradi. Birinchi blok modelning "kirish bazasi" sifatida to'rtta asosiy omil guruhini o'z ichiga oladi: tabiiy resurslar salohiyati, institutsional muhit, investitsion-moliyaviy resurslar hamda innovatsion-texnologik salohiyat.

Xorazm viloyatining tabiiy-resurs bazasi (quyosh va biomassa energiyasi, ekologik toza xomashyo hamda organik qishloq xo'jaligi uchun qulay agroiqlimiy sharoitlar) yashil eksport uchun muhim asos yaratadi. Institutsional muhit esa davlat siyosati, ekologik standartlar (ISO 14001, GlobalG.A.P.) va eksportga yo'naltirilgan normativ-huquqiy baza orqali yashil transformatsiyaning tezligi va samaradorligini belgilaydi [9]. Yashil texnologiyalarga o'tish investitsion resurslarni talab etib, moliyalashtirishning asosiy manbalari sifatida yashil investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki) hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion va texnologik salohiyat – yashil texnologiyalar transferi, raqamli qishloq xo'jaligi (AgroTech, IoT tizimlari), ilmiy-tadqiqot va startap ekotizimi – yashil ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchi blok kirish resurslarini yashil eksport mahsulotlariga aylantiruvchi funksional mexanizmlar tizimini ifodalaydi hamda beshta asosiy quyi tizimni o'z ichiga oladi: yashil ishlab chiqarish, qo'shimcha qiymat zanjiri, yashil logistika va ta'minot

zanjiri, eksportni rivojlantirish mexanizmi hamda institutsional qo'llab-quvvatlash.

Yashil ishlab chiqarish tizimi resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza mahsulot standartlariga rioya qilish va energiya samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarishdagi ekologik izni minimallashtirishga xizmat qiladi. Qo'shimcha qiymat zanjiri xomashyodan sertifikatlangan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab olib, chuqur qayta ishlash, mahsulotlarni differensiallash (eco-label, organic brand) va yuqori qo'shimcha qiymatli eksportni rivojlantirishni ta'minlaydi. Yashil logistika esa past emissiyali transport, sovuq zanjir infratuzilmasi hamda raqamli kuzatuv tizimlari orqali mahsulot sifati va ekologik talablarning saqlanishini kafolatlaydi. Eksportni rivojlantirish mexanizmi bozor segmentatsiyasi, yashil brending va savdo diplomatiyasi vositalari orqali mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlaydi. Institutsional qo'llab-quvvatlash esa subsidiya va soliq imtiyozlari, eksport sug'urtasi hamda klasterlash mexanizmlari orqali barcha quyi tizimlarning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

Uchinchi blok modelni oddiy «kirish-chiqish» sxemasidan dinamik o'rganuvchi tizimga aylantiruvchi muhim element hisoblanadi. Ushbu blok monitoring, baholash va adaptatsiya mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Monitoring tizimi yashil eksport hajmi (AQSh dollarida va fizik birlikda), ekologik sertifikatlangan mahsulotlar ulushi hamda resurs samaradorligi (suv va energiya sarfi dinamikasi) kabi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha uzluksiz ma'lumotlarni shakllantiradi.

Mazkur ma'lumotlar asosida eksport samaradorligining rentabellik tahlili, bozor raqobatbardoshligi (raqobatchilar bilan solishtirma tahlil) va ekologik ta'sir (CO<sub>2</sub> emissiyasi) baholanadi. Olingan natijalarga muvofiq strategiyani qayta ko'rib chiqish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish hamda bozorlarni diversifikatsiya qilish orqali tizim optimallashtiriladi. Ushbu adaptatsiya

mexanizmlari teskari aloqa (feedback) orqali 1-blokka ta'sir ko'rsatib, modelning uzluksiz takomillashib borishini ta'minlaydi.

Uchinchi blok modelning dinamikligini ta'minlovchi asosiy element bo'lib, u monitoring, baholash va adaptatsiya mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Monitoring tizimi yashil eksport hajmi, ekologik sertifikatlangan mahsulotlar ulushi hamda resurs samaradorligi (suv va energiya sarfi) bo'yicha muntazam ma'lumotlarni yig'adi.

Monitoring natijalari asosida eksportning rentabelligi, bozor raqobatbardoshligi va ekologik ta'siri (CO<sub>2</sub> emissiyasi) baholanadi. Olingan natijalarga muvofiq strategiya qayta ko'rib chiqiladi, texnologiyalar modernizatsiya qilinadi va bozorlar diversifikatsiya qilinadi. Ushbu jarayon teskari aloqa mexanizmi orqali 1-blokka ta'sir ko'rsatib, modelning uzluksiz takomillashuvini ta'minlaydi.

**1-jadval**

**Yashil eksport modeli natijalari tizimi\***

<b>Natijalar yo'nalishi</b>	<b>Asosiy ko'rsatkichlar</b>	<b>Mintaqaviy ahamiyati</b>
<b>Iqtisodiy natijalar</b>	<i>Yashil eksport hajmining barqaror o'sishi; qo'shimcha qiymat ulushining oshishi; hududiy YAIMning o'sishi</i>	<i>Mintaqaning iqtisodiy mustaqilligi va daromad bazasining kengayishi</i>
<b>Raqobatbardoshlik natijalari</b>	<i>Xalqaro bozorlarda ulushning oshishi; differensial ustunlik; eksport geografiyasining kengayishi</i>	<i>Viloyatning global yashil savdo tizimiga integratsiyasi</i>
<b>Ekologik natijalar</b>	<i>CO<sub>2</sub> emissiyasining kamayishi; resurslardan samarali foydalanish; ekologik barqarorlik</i>	<i>Orol dengizi muammosi kontekstida mintaqaviy ekosistemasini tiklanishiga hissa</i>
<b>Ijtimoiy natijalar</b>	<i>Yangi ish o'rinlari; aholi daromadlarining oshishi; ekologik ong shakllanishi</i>	<i>Inson kapitalining rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlik</i>

\*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet veb saytlarining materiallari asosida muallif ishlanmasi.

Muhim metodologik jihat shundaki, to'rt yo'nalish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Ekologik natijalar (resurs samaradorligi) iqtisodiy natijalarni (xarajatlarning kamayishi) bevosita yaxshilaydi, ijtimoiy natijalar (inson kapitali) esa innovatsion salohiyatni, ya'ni 1-blokni kuchaytiradi. Bu holat tizimning ichki sinergiyasini ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar.**

Ushbu tadqiqot natijasida Xorazm viloyatida yashil eksportni rivojlantirish va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan Yashil eksport modeli (YEM) ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari yashil eksport va mintaqaviy raqobatbardoshlik o'rtasida bozorga kirish imkoniyatlari, ishlab chiqarish samaradorligi hamda institutsional obro' orqali namoyon

bo'ladigan tizimli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur bog'liqlikni samarali boshqarish mintaqaning barqaror raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Modelning ilmiy yangiligi uning to'rt blokli tuzilmasi va bloklararo teskari aloqa mexanizmi bilan belgilanadi. Ushbu mexanizm modelni statik tizimdan dinamik, o'zini o'zi takomillashtiruvchi tizimga aylantiradi hamda amaliy qo'llanilishida barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, modelni Xorazm viloyatida samarali joriy etish uchun siyosiy qo'llab-quvvatlash, institutsional tayyorgarlik, qulay biznes muhiti va xalqaro hamkorlikning kompleks ta'minlanishi muhim omil sifatida aniqlangan.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy siyosatini

takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi hamda Xorazm viloyatida yashil eksport strategiyasini shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Yakuniy jihatdan, Yashil eksport modeli nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki Orolbo'yi hududiga xos ekologik muammolarni

yumshatish va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur model eksportni rivojlantirish vositasi bilan cheklanmay, mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. United Nations Environment Programme (UNEP). *Green Economy Report*. – Geneva, 2022.
2. Grazini, C., & Guarini, G. (2025). *Environmental policy and green export competitiveness: The enhancing effect of economic complexity*. *PSL Quarterly Review*, 78(312), 27-50.
3. Emam, M. A., Leibrecht, M., & Chen, T. (2022). *The impact of a "National Green Export Review" on Competitiveness: Empirical evidence for Ecuador's fish exports*. *Agriculture*, 13(1), 62.
4. Xiong, Y., Ong, C. H., Wang, Z., & Liu, Z. *Impact of Regional Green Food Industry Resilience on Agricultural Sustainable Development Performance: The Mediating Role of Export Competitiveness and Implications for Rural Revitalization*. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 10, 1757799.
5. Normuradovich, R. E. (2025). *O'ZBEKISTONDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(5), 62-67.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni.
7. Elmurodov B.J. *Mintaqaviy iqtisodiyotda eksport salohiyatini rivojlantirish*. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021.
8. Global Green Growth Institute (GGGI). *Green Growth Index 2023*. – Seoul: GGGI, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-oktabrdagi PQ-4477-son qarori "Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".
10. Jumaniyozov, F. (2024). *Yashil iqtisodiyot*. *Молодые ученые*, 2(29), 115-117.